O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI

Amirov Zubaydulla Toir o’g’li
Toshkent arxitektura qurilish universiteti
“Iqtisodiyot va ko’chmas mulk” kafedrasi katta o’qituvchisi.
E-mail: zubaydullaa@gmail.com
Tel: +99897 751 56 66

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligi 2017-2024 yillar statistik ma’lumotlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda texnologik, mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalarning rivojlanish dinamikasi hamda hududlar kesimidagi farqlar baholanadi. Olingan natijalar kichik biznesda innovatsion faollik pastligini va uni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, innovatsion faollik, innovatsion rivojlanish, ITTKI, hududiy tahlil.*

Аннотация. *В статье анализируется инновационная активность субъектов малого бизнеса в Узбекистане на основе статистических данных за 2017-2024 годы. Оценивается динамика технологических, продуктовых, процессных, маркетинговых и организационных инноваций, а также региональные различия. Результаты показывают низкий уровень инновационной активности малого бизнеса и необходимость его стимулирования.*

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимательство, инновационная активность, инновационное развитие, НИОКР, региональный анализ.*

Abstract. *The article examines the innovative activity of small business entities in Uzbekistan based on statistical data from 2017-2024. The dynamics of technological, product, process, marketing, and organizational innovations, as well as regional differences, are assessed. The findings indicate a low level of innovative activity in small businesses and the need for further stimulation.*

Keywords: *small business, private entrepreneurship, innovative activity, innovation development, R&D, regional analysis.*

Iqtisodiyotda mulkchilik shakllarini diversifikatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab kelinmoqda. Xususan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan. Bu jarayonda 2023-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar kichik biznesning innovatsion rivojlanishini ta’minlash uchun muhim institutsional asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi, avvalo, ularning innovatsion faolligi bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyat yangi bilimlarni yaratish va amaliyotga joriy etish, texnologik, mahsulot, jarayon, marketing hamda tashkiliy innovatsiyalarni ishlab chiqarish va xizmatlar sohasiga tatbiq etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Aynan shu omillar kichik biznes subyektlarining bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytirib, ularning iqtisodiy o‘sish jarayonidagi ishtirokini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish hamda ochiq iqtisodiy siyosatni joriy

etish bo‘yicha muhim choralar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud yuqori ta’lim salohiyati, ilmiy-tadqiqot tizimining saqlanib qolganligi kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida innovatsiyalarni joriy etish jarayonlari yetarlicha faollashmagan bo‘lib, malakali kadrlar yetishmasligi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarining sustligi ushbu jarayonni sekinlashtirmoqda.[1]

Aholi sonining o‘sishi va resurslarning cheklanganligi sharoitida iqtisodiy o‘sishni intensiv yo‘l bilan ta’minlash zarurati ortib bormoqda. Bunday sharoitda kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirish iqtisodiy o‘sish sifatini yaxshilashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois kichik biznes innovatsion faoliyatining holatini baholash, hududlar kesimidagi farqlarni aniqlash hamda innovatsion faollikka ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyotida 2020-2024 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari, (%da)

Ko‘rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024-yil 2023 yilga nisbatan, %da
YaIM	55,3	54,8	54,1	51,8	52,6	95,7
Sanoat	25,8	27,9	27,4	26,0	26,7	94,8
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	97,9	96,7	96,0	94,8	94,3	98,7
Investitsiya	44,3	44,0	45,6	47,9	48,7	105,0
Qurilish	75,8	72,5	72,5	71,5	73,4	98,6

Savdo	83,6	82,3	82,3	84,7	86,4	102,9
Jami xizmatlar	53,2	51,8	51,7	49,4	51,7	95,5
Yuk tashish	54,4	51,6	42,9	47,4	46,7	110,4
Yo‘lovchi tashish	90,4	93,5	92,7	92,4	91,3	99,6
Bandlik	76,2	74,5	74,5	73,9	74,4	99,1
Eksport	27,0	20,5	20,0	29,6	29,0	148,0
Import	61,6	51,7	45,2	49,4	50,6	109,2


1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-2024 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish ko‘rsatkichlari asosan barqaror bo‘lib, ayrim yo‘nalishlarda ijobiy o‘sish tendensiyalari shakllangan. Xususan, 2024-yilda investitsiyalar sohasida kichik biznes ulushi 48,7 foizga yetib, 2023-yilga nisbatan 5,0 foizga oshgan. Bu holat kichik biznes subyektlarining modernizatsiya va innovatsion loyihalarga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Savdo sohasida kichik biznes ulushi yuqori darajada saqlanib qolib, 2024-yilda 86,4 foizni tashkil etgan. Yuk tashish xizmatlarida esa 10,4 foizlik o‘sish qayd etilib, logistika va transport sohasida kichik biznes faolligi kuchayganini anglatadi. Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulot va xizmatlar sohasida ayrim pasayishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, 2024-yilda tiklanish alomatlari namoyon bo‘lmoqda.

Tashqi savdo ko‘rsatkichlari ichida eksport alohida ajralib turadi. 2024-yilda kichik biznes eksporti 29,0 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 48,0 foizga oshgan. Import hajmining 9,2 foizga ko‘payishi esa mashina va asbob-uskunalar olib kirishning ortishi bilan izohlanadi, bu esa kichik biznesda texnologik yangilanish jarayonlari faollashayotganidan dalolat beradi.[2]

Umuman olganda, jadval ma’lumotlari kichik biznesning investitsiya va tashqi savdo yo‘nalishlarida nisbatan yuqori faollik ko‘rsatayotganini hamda innovatsion rivojlanish uchun muhim iqtisodiy asoslar shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Barchamizga ma’lumki, keyingi yetti yil mobaynida barcha sohalar singari, innovatsiya sohasida ham keskin tub o‘zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Agarda, 2018-yil 2017-yilga nisbatan jami ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni atiga 2,4 %ga ko‘paygan bo‘lsa, 2024-yil 2023-yilga nisbatan bunday o‘sish 12,4 %ni tashkil etdi, o‘z navbatida kichik korxonalar sonining o‘sishi 8,6 %ni, mikrofirmalarning o‘sish sur’ati esa, 13,9 %ni, boshqa turdagi korxonalarning o‘sishi 3,9 %ni tashkil qilgan.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning turlari bo‘yicha taqsimlanishi

1-rasm ma’lumotlari so‘nggi yetti yil davomida O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari sonining jadal o‘sishini ko‘rsatadi. Xususan, 2017-2024 yillar oralig‘ida ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar umumiy soni 2,4 foizdan 12,4 foizgacha tezlashgan o‘sish sur’atini namoyon etgan. 2024-yilda

kichik korxonalar soni 8,6 foizga, mikrofirmalar esa 13,9 foizga oshgani ushbu segmentning iqtisodiyotdagi yetakchi rolini tasdiqlaydi.

Tarkibiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2024-yilda mikrofirmalarning ulushi 84,1 foizni tashkil etib, kichik biznesning asosiy qismini shakllantirgan. Bu holat kichik biznesda innovatsion faoliyatning asosan jarayon innovatsiyalari orqali amalga oshirilayotganini anglatadi. Ya’ni, mikrofirmalar texnologik yoki mahsulot innovatsiyalaridan ko‘ra, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirishga ko‘proq e’tibor qaratmoqda.[3]

Ma’lumki, innovatsion faollik – bu ilmiy-texnik taraqqiyot va ilg‘or tajribalardan foydalanishga asoslangan innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sur’ati, ko‘lami va davomiyligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardir.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida innovatsion faollik ko‘rsatkichlari, (birlikda)

Ko‘rsatkichlar	**2020-yil**	**2021-yil**	**2022-yil**	**2023-yil**	**2024-yil**	**O‘sish sur’ati 2024-yil 2023-yilga nisbatan**
Texnologik innovatsiyalar	4427	4011	3936	3409	1689	49,5
shu jumladan:						
Mahsulotlar bo‘yicha innovatsiyalar	3543	3017	3035	1629	1404	86,2
Jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar	884	994	901	1788	789	44,1

Marketing innovatsiyalari	128	202	145	113	191	169
Tashkiliy innovatsiyalar	13	77	67	270	120	44,4

Innovatsion faollik koʻrsatkichlarining tahlili shuni koʻrsatadiki (2.4-jadval), jami texnologik innovatsiyalar tarkibi ham yildan-yilga oʻzgarib bormoqda, 2020-yilda eng yuqori darajada (4427 birlik), 2024-yilda 1689 birlikkacha tushgan va bu 2023-yilga nisbatan 49,5 % kamayishni anglatadi. Mahsulotlar boʻyicha innovatsiyalar 86,2 foizni tashkil qilib, 2024-yilda oldingi yilga nisbatan 13,4 foizga kamayganligi, jarayonlar boʻyicha innovatsiyalar 44,1 foizni tashkil etib bu koʻrsatkich 2023-yilga nisbatan tushganini aniqlaymiz. Shu jumladan, tashkiliy innovatsiyalar 44,4 foiz koʻlamda boʻlib, oʻsish surʼati 8 barobar koʻpaygan, marketing boʻyicha innovatsiyalar esa 2024-yilda yuqori oʻsish koʻrsatib, 191 birlikka chiqqan va 169 % tashkil qilgan. Amalga oshirilgan innovatsiyalarning asosiy ulushi texnologik yangiliklar, qaysi mahsulot tarkibida innovatsiyalar ustunlik qilishi, soʻnggi ikki yil ichida jarayonlar boʻyicha innovatsiyalar ham rivojlana boshladi. Shunday qilib, 2024-yildagi texnologik yangiliklarning 52,4 foizi jarayonlar innovatsiyalari sifatida amalga oshirildi.[4]

Soʻnggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi korxonalarimizning innovatsiyalar sohasidagi tadbirkorlik faoliyati oʻsib bormoqda, garchi u jahon miqyosida taqqoslaganimizda pastligicha qolsa ham. “Hududlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtishini integral baholash uchun ushbu hududlarda amaliy ITTKI bosqichida boʻlgan, sanoatda qoʻllash va oʻzlashtirish bashorat qilinayotgan ilmiy tadqiqot va ishlanmalar maʼlumotlarini ekspertiza qilish zarur. Bunday ekspertiza oʻtkazishning asosiy maqsadi – innovatsion loyihalar maʼlumotlarini innovatsion turdagi

iqtisodiyotga o‘tish salohiyatini shakllantirishga kiritish imkoniyatlarini aniqlashdir”[5].

Innovatsion tizimni shakllantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri mamlakat mintaqalarini innovatsion rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning innovatsion salohiyati va innovatsion faollikni baholash hisoblanadi. Bunda innovatsion faollik hududning rivojlanishini ta’minlaydigan yagona omil sanaladigan vaziyatni yuzaga chiqarishi mumkin.

Mamlakat miqyosidagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar eng avvalo uning hududlari, tuman va shahar ko‘rsatkichlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Innovatsion faollikning yana bir asosiy ko‘rsatkichi bu hududlari bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hajmi ko‘rsatkichlaridir (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hajmi, (mln.so‘m)

№	Hududlar	**2020-y.**	**2021-y.**	**2022-y.**	**2023-y.**	**2024-y.**	**O‘sish sur’ati, %da**	**O‘rtacha va o‘rin**
I.	O‘zbekiston Respublikasi	853404,4	992029,1	1069676,5	1788300,9	190000,0	167,1	**127735,7**
1.	Qoraqalpog‘iston	12050,0	13800,0	15426,3	25597,9	26800,0	165,9	IV

	Respublikasi							
2.	Andijon	6025,0	6825,0	7918,5	8170,3	8500,0	103,1	XII
3.	Buxoro	20500,0	23150,0	26673,8	30378,3	32000,0	113,8	VIII
4.	Jizzax	3560,0	4000,0	4364,2	4645,1	4800,0	106,4	X
5.	Qashqadaryo	2750,0	2950,0	3256,6	4668,4	4900,0	143,3	VII
6.	Navoiy	95000,0	103000,0	110991,2	529830,0	550000,0	477,3	I
7.	Namangan	2750,0	3000,0	3501,1	6639,1	7000,0	189,6	III
8.	Samarqand	13500,0	14500,0	16433,3	179753,1	180500,0	109,3	XI
9.	Surxondaryo	2450,0	3750,0	2937,1	6401,4	6700,0	217,9	II
10.	Sirdaryo	3500,0	116000,0	4473,2	3911,7	4000,0	88,0	XIII
11.	Toshkent	107000,0	23500,0	126724,7	185030,0	190000,0	146,0	VI
12.	Farg‘ona	21500,0	23500,0	26666,9	3392,4	3500,0	12,7	XIV
13.	Xorazm	4350,0	4800,0	5254,6	7722,8	8000,0	146,9	V
14.	Toshkent shahri	650000,0	685000,0	715055,0	792160,4	820000,0	110,7	IX

Tahlil jarayonida 2024-yilda mamlakatimiz bo‘yicha ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari hajmi yildan-yil o‘sib borish tendensiyasiga ega. O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtacha 127mlrd. 735mln. so‘mdan ortiq ish hajmi bajarilgan. Bu borada Navoiy viloyati (4,7 barobar ko‘p) lider hisoblansa, keyingi yuqori o‘rinlarda Surxondaryo (30,4 foiz ko‘p) va Namangan (14,2 foiz ko‘p) kabi viloyatlar mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan ko‘p ish bajarganligi bilan ajralib turibdi. Hududlarda innovatsion rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblangan ITTKI hajmi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari yetakchilik qilishmoqda. Bu borada nisbatan sust va o‘z salohiyati va imkoniyatlaridan past foydalanayotgan viloyatlarga Toshkent shahri (mamlakat miqyosida eng yuqori innovatsion potensialga ega), Buxoro, Jizzax, Samarqand, Andijon, Sirdaryo va Farg‘ona kabi hududlar kiradi. Ayniqsa, Farg‘ona (-87,3 foizga) va Sirdaryo (-12,0 foizga) viloyatlari bu borada eng past ko‘rsatkichlarni egallagan. Agarda mazkur yo‘nalishda har bir viloyat dastlab mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichlariga yetib olish, so‘ngra esa eng yuqori hududlar ko‘rsatkichlariga erishishni maqsad qilib olishsa bu boradagi ish hajmi sezilarli darajada o‘sishga olib keladi, deb hisoblaymiz.[6]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oqilona innovatsion va investitsion siyosat natijasida O‘zbekistonning ilmiy-texnologik salohiyati bosqichma-bosqich mustahkamlanib bormoqda. Xususan, so‘nggi yillarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI)ga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining oshishi innovatsion faoliyatga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirib, iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeliga o‘tish uchun muhim shart-sharoitlar yaratmoqda. Raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, texnoparklar va innovatsion markazlarni tashkil etish ITTKI samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Faoliyat sektorlari bo‘yicha ITTKI hajmining yildan-yilga ortib borishi mamlakatda texnologik yangilanish jarayonlari jadallashayotganini ko‘rsatadi. Biroq ITTKI hajmining o‘sishi har doim ham kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligi bilan mutanosib emas. Shu sababli innovatsion rivojlanish samaradorligini baholashda aynan kichik biznes subyektlarining innovatsion faollik darajasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2020-2024 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning umumiy rivojlanish ko‘rsatkichlari asosan barqaror bo‘lib, investitsiyalar, savdo va tashqi savdo yo‘nalishlarida ijobiy siljishlar kuzatilgan. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarining investitsiya faolligi va eksportdagi ulushining oshishi ularning iqtisodiy o‘sishdagi rolini mustahkamlab bormoqda.[7]

Shu bilan birga, innovatsion faollik darajasi tahlili kichik biznesda innovatsiyalar asosan jarayon innovatsiyalari bilan cheklanib qolayotganini, mahsulot va texnologik innovatsiyalar ulushi esa yetarli darajada rivojlanmaganini ko‘rsatdi. Hududlar kesimida innovatsion faollik darajasida sezilarli tafovutlar mavjud bo‘lib, bu ITTKI hajmi, kadrlar salohiyati va innovatsion infratuzilma rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq.

Umuman olganda, kichik biznes subyektlari sonining jadal o‘sishi innovatsion rivojlanish uchun muhim tashkiliy asos yaratmoqda, biroq mazkur salohiyatdan to‘liq foydalanish uchun innovatsion faollikni oshirishga qaratilgan tizimli yondashuv zarur.

Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. *Kichik biznes uchun ITTKI bilan integratsiyani kuchaytirish:* Kichik biznes subyektlarining ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorligini kengaytirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini soddalashtirish zarur.

2. *Innovatsion loyihalarni moliyaviy rag‘batlantirishni kengaytirish:* Kichik biznes tomonidan amalga oshiriladigan innovatsion loyihalar uchun grantlar, imtiyozli kreditlar va soliq rag‘batlarini hududlar kesimida differensial tarzda joriy etish maqsadga muvofiq.

3. *Hududiy innovatsion infratuzilmani rivojlantirish:* Texnoparklar, biznes-inkubatorlar va innovatsion markazlar faoliyatini aynan kichik biznes ehtiyojlariga moslashtirish orqali hududlar o‘rtasidagi innovatsion tafovutlarni qisqartirish lozim.

4. *Kichik biznes innovatsion faolligini baholash tizimini takomillashtirish:* Innovatsion faollikni faqat umumiy ko‘rsatkichlar orqali emas, balki mahsulot, texnologik va marketing innovatsiyalari kesimida baholash tizimini joriy etish zarur.

5. *Innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish:* Kichik biznes subyektlari uchun innovatsion menejment, raqamli texnologiyalar va yangi ishlab chiqarish yechimlariga oid malaka oshirish dasturlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Ergashxodjaeva Sh.D. Innovatsion marketing. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, Iqtisodiyot, 2014. –125 bet.
2. Abduvaliev Zafar Mahmudovich. Corporate social responsibility is an important factor in the sustainable development of modern companies. The American Journal of Management and Economics Innovations 3 (04), 42-53
3. 3 Abduvaliev B Maxsudov. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat zamonaviy kompaniyalar barqaror rivojlanishining muhim omilidir. Jamiyat va boshqaruv N3. 140-147 bet. 2021/11/20.
4. Abduvaliev Zafar Mahmudovich Maxsudov Begmatjon Yuldashalievich. Theoretical Foundations of the Formation of Corporate

Reporting. Academic Journal of Digital Economics and Stability ISSN 2697-2212 Online:https://academicjournal.io

5. I Karimov- YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2025. Qurilish korxonalarida investisiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo‘llari

6. Karimova I. Qurilish sohasida investitsion faoliyatni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari //MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT. – 2025. – Т. 3. – №. 4.

7. Karimovich, G’iyosov Ilhom, and Karimov Inomjon Ortikbayevich. "The Role and Importance of the TIME Factor in Determining the Effectiveness of Investment Management in Construction Enterprises." *American Journal of Business Management, Economics, and Banking* 19 (2023): 93-99.